


O'zbekiston Respublikasida to'lov tizimi bo'yicha qisqacha ma'lumot

Ma'lumki, respublikada amalda bo'lgan Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi bank mijozlarining asosan "yirik" to'lovlarini yalpi (har bir to'lovlar bo'yicha alohida) hisob-kitoblar asosida qayta ishlash, shuningdek, Kliring tizimi orqali "chakana" to'lovlarni tizim a'zolarining har bir moliyaviy operatsiyalari bo'yicha ma'lum bir davr mobaynidagi yig'ilgan talablari va majburiyatlarining sof pozitsiyasini aniqlagan holda amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.


O'tgan davrda Markaziy bankning banklararo elektron to'lov tizimini takomillashtirish, tizim a'zolari va foydalanuvchilari uchun ilg'or texnologiyalar asosida xizmat ko'rsatish borasida ham muayyan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Respublika Markaziy banki tomonidan 2018 yildan boshlab yangi tahrirdagi "Yagona vakillik hisobvaraqlar hisob-kitob markazi" dasturiy majmuasi amaliyotga joriy qilingan bo'lib, dasturiy majmuada to'lov hujjatlarini real vaqt rejimida ham, «seans»lar asosida fayl rejimida ham ishlov berish mexanizmi ishga tushirildi.

Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lov hujjatlarining o'tish jarayoni quyidagi sxemada bayon etilgan:




Mamlakatimiz bank tizimi, jumladan, elektron to'lovlar tizimini takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar natijasi samarali bo'ldi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali 2017 yilning birinchi yarmida 37,6 mln. ta yoki 318,7 trln. so'mlik banklararo to'lov hujjatlari amalga oshirilgan bo'lsa, joriy yilning birinchi yarmida esa bu ko'rsatkich 36,3 mln. tani yoki 385,3 trln. so'mni tashkil etmoqda. Solishtirilayotgan davrda Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali o'tgan to'lov hujjatlari soni 3,5 foizga kamayganligini, to'lov hujjatlari summasi esa 20,8 foizga oshganligini qayd etish joizdir.

Марказий банкнинг банклараро тўлов тизими орқали 2017 ва 2018 йилнинг биринчи ярмида амалга оширилган транзакциялар сони
(млн.да)



Марказий банкнинг банклараро тўлов тизими орқали 2017 ва 2018 йилнинг биринчи ярмида амалга оширилган транзакциялар суммаси (млрд. сўмда)




Banklararo to'lov tizimi orqali 2018 yilning birinchi yarmida amalga oshirilgan to'lov hujjatlarining kamayishi asosan iqtisodiyotni liberallashtirish hamda bank xizmatlari ommabopligini oshirish maqsadida olib borilgan iqtisodiy siyosat hisoblanib, asosan yirik bo'lmagan to'lovlar (jismoniy shaxslarning soliq va boshqa majburiy to'lovlari, kommunal to'lovlar, g'aznachilik to'lovlari) Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi (MUNIS) orqali amalga oshirilganligi bilan izohlash mumkin.

Agar 2018 yilning o'tgan davri mobaynida Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalarni oylar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, o'rtacha oylik tranzaksiyalar soni 6,05 mln. tani, ularning summasi esa 64,2 trln. so'mni tashkil etishini kuzatishimiz mumkin.


Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar sonini hududlar qirqimida tahlil qilsak, poytaxtimiz Toshkent shahrida amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni jami amalga oshirilgan tranzaksiyalar sonining 29,1 foizini (10,6 mln. ta),

Toshkent viloyatida 12,3 foizini (4,5 mln. ta), Farg'ona viloyatida 6,9 foizini (2,5 mln. ta) tashkil etgan bo'lsa, Sirdaryo viloyatida esa atigi 2,8 foizini (1,0 mln. ta) tashkil etgan:



Bank depozitorlarining milliy axborot bazasi (BDMAB)ning tashkil etilishi banklarga o'z mijozlarining hisobvaraqlari to'g'risida zaruriy ma'lumotlarni zudlik bilan olish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, soliq idoralarini byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar bilan hisob-kitoblarni nazorat qilishlari uchun to'liq ma'lumotlar bilan ta'minlash kabi imkoniyatlarni yaratadi.

BDMAB faoliyati to'liq avtomatlashtirilganligi munosabati bilan banklardan olinadigan so'rovnomalar inson omilisiz avtomatlashtirilgan tarzda qisqa vaqt mobaynida qayta ishlanishi ta'minlandi. Bu esa BDMABda qayd etilgan aktiv mijozlar va ularga ochilgan hisobvaraqlarni tahlilidan kelib chiqib, ularning miqdori yildan-yilga ortib borayotganligidan dalolat beradi.




BDMABda ro'yxatga olingan aktiv mijozlar soni 2017 yil 1 yanvar holatiga 1 638 673 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2018 yilning 1 yanvar holatiga kelib, 7,1 foizga ortib 1 755 492 taga yetdi. Ushbu mijozlarga ochilgan hisobvoraqlar soni esa 2017 yil 1 yanvar holatiga 5 809 172 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2018 yilning 1 yanvariga kelib, qariyb 11,4 foizga ortib 6 469 921 taga yetgan. Shuningdek, tahlil qilinayotgan joriy yilning birinchi yarim yilligida aktiv mijozlar soni joriy yil boshiga nisbatan 4 foizga ortib 1 825 976 taga yetganligini hamda ularga ochilgan hisobvoraqlar soni esa 7 foizga ortib 6 924 141 taga yetganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan, respublikamizda faoliyat yuritayotgan aktiv xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning soni va ularning banklarda ochilgan hisobvoraqlar soni sezilarli darajada ortib borayotganligidan dalolat beradi.

Markaziy bankning hisob-kitoblar Kliring tizimi tahlili

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 27 iyundagi PQ-1989-sonli "O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Markaziy bankning "Chakana to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish kliring tizimini yaratish hamda xizmat ko'rsatuvchilarning billing tizimi bilan integrallash" loyihasi respublika "Elektron hukumat" tizimining axborot tizimlari tarkibiga kiritilgan edi.

Ushbu tizim tijorat banklari filiallari, kassalari va Banklar assotsiatsiyasi qoshidagi Yagona umumrespublika Protsessing markazini ulagan holda, jismoniy va yuridik shaxslarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek kommunal xizmatlar va mobil aloqa operatorlari, raqamli televideniya, byudjet to'lovlari, notarial xizmatlar, biometrik pasport uchun to'lovlar va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar uchun to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish imkoniyatini yaratishdan iborat. Ahamiyatli tomoni shundaki, kliring tizimida mijozlarga dam olish kunlarisiz kechayu-kunduz (24/7) real vaqt rejimida bank hisobvoraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari, tijorat banklari tomonidan yaratilgan mobil ilovalar va bank infokiosklari orqali ishlash imkoniyatini beradi.


Hozirda, Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi bilan Davlat soliq qo‘mitasi, Moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik, Davlat bojxona qo‘mitasi, Adliya vazirligiga qarashli Yagona darcha markazi, Davlat personallashtirish markazi va Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Davlat yo‘l harakati xavfsizligi, shuningdek, “O‘zbekenergo” aksiyadorlik kompaniyasi, “O‘ztransgaz” aksiyadorlik kompaniyasi, “Suvsoz” davlat unitar korxonasi hamda boshqa kommunal va bir qator xizmat ko‘rsatuvchilarning billing tizimlari integratsiya qilingan holda soliq va boshqa majburiy to‘lovlar, elektr energiya va gaz iste‘moli, shuningdek boshqa qator to‘lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish imkoniyati joriy etilgan. Bugungi kunga kelib, respublikamizda 30 dan ortiq xizmatlar bo‘yicha Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi orqali to‘lovlar real vaqt rejimida amalga oshirilmoqda.



Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi orqali barcha xizmatlar bo‘yicha real vaqt rejimida 2016 yil mobaynida 1 957,5 mlrd. so‘mlik to‘lovlar amalga oshirilgan bo‘lsa, 2017 yil mobaynida to‘lovlar summasi 2016 yilga nisbatan 2,6 barobarga ortib, 5 181,3 mlrd. so‘mlik to‘lov amalga oshirilgan. Joriy yilning I birinchi yarim yilligida ushbu tizim orqali real vaqt rejimida amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi 4355,6 mlrd so‘mga yetganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa, o‘tgan yilning shu davriga (2 365,02 mlrd. so‘m) nisbatan 1,8 barobarga ortganligini qayd qilish joizdir.

Jumladan, Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi orqali hisobot yilida amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasining 1 252,1 mlrd. so‘mini (amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasining 28,7 foizi) G‘aznachilik to‘lovlari, 942,2 mlrd. so‘mini (21,6 foiz) tabiiy gaz bo‘yicha to‘lovlar, 795,3 mlrd. so‘mini (18,3 foiz) elektr energiya bo‘yicha to‘lovlar, 421,7 mlrd. so‘mini (9,7 foiz) soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha to‘lovlar, 285,2 mlrd. so‘mini (6,5 foiz) Notarius xizmatlari va FHDYo bo‘yicha to‘lovlar, 216,05 mlrd. so‘mini (5,0 foiz) Davlat personallashtirish markazi to‘lovlari, 189,4 mlrd. so‘mini (4,3 foiz) issiqlik quvvati bo‘yicha to‘lovlar, 94,9 mlrd. so‘mini (2,2 foiz) bojxona to‘lovlari hamda 158,7 mlrd. so‘mini (3,6 foiz) boshqa to‘lovlarni tashkil etgan.

Марказий банкнинг ҳисоб-китоблар клиринг тизими орқали хизматлар бўйича амалга оширилган транзакциялар суммасининг улуши




Xulosa qilib aytganda, chakana to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish Kliring tizimi PQ-1989-sonli qarori bilan belgilangan muddatlarda ishga tushirilgan bo'lib, hozirgi vaqtda bank tizimi tomonidan ushbu axborot tizimini takomillashtirish va joriy qilish doirasini kengaytirish ishlari olib borilmoqda.


Bundan tashqari, barcha bank plastik kartalari orqali amalga oshirilayotgan to'lovlar bo'yicha yakuniy moliyaviy hisob-kitoblar Markaziy bankning kliring tizimi orqali amalga oshirilmoqda.

Shu o'rinda mamlakatimizda bank plastik kartalari infratuzilmasining rivojlanishiga to'xtaladigan bo'lsak, respublika banklari tomonidan bank plastik kartalari yordamida naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini kengaytirish maqsadida, 2018 yil 1 iyul holatiga 18 242 mingta bank plastik kartalari muomalaga chiqarilgan bo'lib, 2017 yil va 2018 yilning o'tgan davri mobaynida DUET tizimi bank plastik kartalari bilan bog'liq loyihalarning tugatilganligi munosabati bilan umumiy soni qisqargan. To'lov terminallari soni esa 2018 yil 1 yanvar holatiga 235 712 tani tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilning o'tgan davri mobaynida 6 098 taga ortib 2018 yilning 1 iyul holatiga 241 810 tani, bankomat va infokiosklar soni esa 2018 yil 1 yanvar holatiga 5 632 tani tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilning o'tgan davri mobaynida qariyb 10 foizga ortib 2018 yilning 1 iyul holatiga 6 174 tani tashkil etgan.

Ўзбекистон Республикасида муомалага чиқарилган банк пластик карталари сони (мингда)



Ўзбекистон Республикасида ўрнатилган терминаллар сони




Ўзбекистон Республикасида ўрнатилган банкомат ва инфокиосклар сони



Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, milliy valyutada bank plastik kartalari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi 2016 yil mobaynida 53 050,1 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilda esa 52 972,3 mlrd. so'mga yetgan. Hisobot yili hisoblangan 2018 yilning o'tgan olti oyi mobaynida esa bank plastik kartalari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar

summasi 28 275,9 mlrd. so'mga yetgan bo'lib, o'rtacha bir oylik tranzaksiyalar summasi 4 712,7 mlrd. so'mni tashkil etmoqda.



Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari tahlili

Mamlakatimizda ko'rsatilayotgan bank xizmatlari ommabopligini va sifatini yanada oshirish hamda tadbirkorlik sub'ektlari bilan to'laqonli hamkorlik munosabatlarini o'rnatish uchun tijorat banklarining ish uslublarini tubdan yaxshilash, aholi va xo'jalik sub'ektlarining bank tizimiga ishonchli institutsional hamkor sifatida qarashlarini mustahkamlash vazifalari dolzarbligini inobatga olib, tijorat banklari tomonidan bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari (bank-mijoz, internet-banking, mobil-banking, sms-banking va boshqalar)ni respublika miqyosida kengaytirishni jadallashtirish maqsadida har yilda yillik maqsadli ko'rsatkichlar rejasi ishlab chiqilib, mazkur tizim bosqichma-bosqich rivojlantirib borilmoqda.

Turli xorijiy davlatlar tajribasi to'lov tizimlarining rivojlanishi birinchi navbatda to'lov vositalari va xizmatlarini kengaytirish natijasida bank operatsion xarajatlarini kamaytirish va xizmatlar samaradorligini oshirishga olib kelishini ko'rsatmoqda. Shuning bilan birga, bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari orqali onlayn to'lovlarni keng qo'llanilishi to'lovlarni amalga oshirish bilan bog'liq bank xizmatlarining shaffoqligini va samaradorligini oshirilishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, banklar va bank mijozlari uchun qulay bo'lgan masofaviy bank texnologiyalari, ya'ni internet banking, sms-banking va mobayl banking kabi zamonaviy texnologiyalar keng joriy qilinmoqda. Mijozlarga zamonaviy texnologiyalar asosida yangi xizmatlar ko'rsatish natijasida bank mijozlarining soni va banklarga bo'lgan ishonchi ortib bormoqda.

Zamonaviy to'lov texnologiyalari va masofaviy bank xizmatlarini rivojlanishi bilan birgalikda masofaviy bank xizmatlari tizimlari rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda mobil telefonlar orqali to'lovlarni amalga oshirish tizimlaridan keng foydalanilmoqda. Ushbu tizimlar orqali, asosan, mobil operatorlar, internet provayderlar xizmatlari uchun to'lovlar, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda turli kommunal to'lovlari amalga oshiriladi.


Alohida qayd etish joizki, respublikamizda 2018 yilning 1 iyul holatiga bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar jami soni 6 687 547 ta

bo'lib, shundan bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 304 055 tani tashkil etgan bo'lsa, bank plastik kartalari va bank depozit hisobvaraqlari bo'yicha bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar soni esa 6 383 492 tani tashkil etadi.

Bu esa, 2018 yil 1 yanvar holatiga (4 453 240 taga) nisbatan bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar jami soni 1,5 barobarga, mos ravishda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni (227 879 taga nisbatan) 1,3 barobarga hamda jismoniy shaxslar soni(4 225 361 taga nisbatan) 1,5 baravarga oshganligidan dalolat beradi.

Hozirgi kunda barcha tijorat banklari tomonidan raqamli banking texnologiyalarini, jumladan, mobil-banking xizmatlarini real vaqt rejimida ko'rsatish tizimlarini yanada rivojlantirish, bank plastik kartalarini to'liq qamrab olish maqsadida barcha banklar (Eron "Soderot" bankidan tashqari) tomonidan jismoniy shaxslar uchun mobil-ilova to'lov dasturlari yaratilib va joriy qilingan.





Shu bilan birga, mobil-ilova to'lov dasturlari imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida banklardagi hisobvoraqlarini boshqarish, bank plastik karta hisobvarag'idan bank plastik karta hisobvarag'iga, depozit hisobvarag'idan - depozit hisobvarag'iga to'lovlarni amalga oshirish, onlayn kreditlar berish (kreditlarni so'ndirish) va to'lovlarni amalga oshirish, onlayn jamg'armalar ochish, onlayn konversiya amallari, savdo va xizmat ko'rsatish shahobchalariga onlayn to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi mexanizmlar deyarli barcha banklar tomonidan joriy etildi. Ushbu mexnizmlarning yagona platformada joriy qilinishi, bank mijozlari – jismoniy shaxslarga bankdagi o'z hisobvoraqlarini har kuni 24/7 tamoyili asosida boshqarish hamda pul mablag'larini tasarruf etish imkoniyatini yaratadi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirish borasida 2018 yilda banklar tomonidan mobil-ilova to'lov dasturlari yordamida QR code va NFC kabi zamonaviy texnologiyalar asosida kontaktsiz to'lovlarni amalga oshirishva qabul qilish imkoniyatini yaratish ko'zda tutilgan. Ushbu imkoniyatlardan bozorlarda, sayyor yarmarka va ayniqsa, transportda foydalanilishi aholi uchun qulay hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, respublika to'lov tizimini yanada rivojlantirish borasida Markaziy bank tomonidan doimiy ravishda zarur islohotlar olib borilmoqda. Xulosa o'rnida qayd etish joizki, mamlakatimiz iqtisodiyotini oziqlantirib turadigan qon tomirlari hisoblangan bank tizimining to'lov tizimlarini yanada isloh qilish va rivojlantirish yuzasidan olib borilayotgan ishlar barcha iqtisodiy tarmoqlar taraqqiyotini yanada mustahkamlashga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.